

**MAXSUS KIIYIMLARNI ISHLAB CHIQRISHDA TIKUV-YIG'UV  
OPERATSIYALARIDA TIPIK ELEMENTLARINI QO'LLASH****Urinova Aziza Ziyadullaevna***Buxoro muhandislik-texnologiya instituti*

**Annotatsiya.** *Tikuv jihozlari klassifikatsiyasining turli variantlari mavjud bo'lib, ular baxya turlari, ishlov beriladigan materiallar turlari, tezlik xarakteristikalarini, mashina konstruksiyasining alohida elementlari qo'llash usullari.*

**Kalit so'zlar.** *baxyaqator, ag'darma chok, biriktirma chok, bostirma chok, yo'rmalash choki, biriktirma-yo'rmalash choki, choklarni puxtalash, tugma qadash, izma yo'rmalash, emblemalar.*

**Аннотация.** *Существуют различные варианты классификации швейного оборудования, к которым относятся типы мешков, виды обрабатываемых материалов, скоростные характеристики, отдельные элементы конструкции машины.*

**Ключевые слова.** *швейная машина, обметочный шов, наметочный шов, прижимной шов, наметочный шов, наметочно-наметочный шов, отделочные швы, пуговицы, наметка, эмблемы.*

**Annotation.** *There are various options for the classification of sewing equipment, which are types of bags, types of processed materials, speed characteristics, individual elements of the machine design.*

**Keywords .** *sewing machine, overturning seam, basting seam, pressing seam, basting seam, basting-basting seam, finishing seams, buttoning, basting, emblems.*

Kiyimning barcha turi- bu murakkab buyum hisoblanib, biron bir usul bilan birlashtirilgan alohida detallardan iborat. Alohida detallarni biriktirish usullari ipli, elimli, payvandli, ultrazvuk ta'sirida amalga oshirilishi mumkin. Detailarni biriktirishning eng tarqalgan usuli (95 %) ipli biriktirish hisoblanib, amalda tikuv mashinalar yordamida yoki qo'lda bajariladi.

Ustma-ust qo'yilgan materialning bir necha qavatining biriktirilishi chok deb, ipli asasi esa- baxyaqator deb ataladi. Baxyaqator ignaning ikkita teshma orasida o'zaro o'rashgan takrorlanuvchi elementlardan iborat elementlar baxyalar deb ataladi.

Tikuvchilikda eng ko'p qo'llanadigan baxya turlari: zanjirsimon bir ipli, zanjirsimon ikki ipli, ikki ipli mokili, yo'rmalash, biriktirib –yo'rmalash baxyalar.

Tikuv jihozlari klassifikatsiyasining turli variantlari mavjud bo'lib, ular baxya turlari, ishlov beriladigan materiallar turlari, tezlik xarakteristikalarini, mashina konstruksiyasining alohida elementlari va hokazolar bilan farqlanadi.

Tikuvchilikdagi texnologik operatsiyalarni taxlil etganda tikuv choklarning bir necha asosiy turlarini ajratish mumkin. 1- jadvalda kiyimni tayyorlash jarayonida eng

ko'p uchraydigan operatsiyalardan 6 tasi keltirilgan.

**Mashina operatsiyalarining terminalogiyasi va ularning texnik shartlari**

1-jadval

	<i>Bahyaqat or turi</i>	<i>CH ok uzunligi (mm)</i>	<i>Igna turi</i>	<i>Iplar turi</i>	<i>Material turi</i>
	<b>Biriktirma chok</b>	do 4	0052 -50 0052 -100 0052 -110 0052 -120	Pvt № 40, 50, 60, 80 (GOST 6309-79), Ipak (GOST 22665 - 74)	Maxsus kiyim uchun mo'ljallangan mato
	<b>Ag'darma chok</b>	do 4	0052 -50 0052 -100 0052 -110 0052 -120	Pvt № 40, 50, 60, 80 (GOST 6309-79), Ipak (GOST 22665 - 74)	Maxsus kiyim uchun mo'ljallangan mato
	<b>Bostirma chok</b>	do 4	0203 -110 0203 -120 0203 -130 0203 -140	Pvt № 10, 20, 30 (GOST 6309-79) Ipak № 33, 68, (GOST 22665 - 74), Lavsan 84/2 (GOST 17-257- 73)	Maxsus kiyim uchun mo'ljallangan mato
	<b>Yo'rmalash choki</b>	5-10	0029 -75 0029 -80 0029 -100 0029 -110	Pvt № 30, 40, 50,60,80 (GOST 6309-79) Ipak № 33, 65, (GOST 22665 - 74)	Maxsus kiyim uchun mo'ljallangan mato

<i><b>Biriktirma- yoʻrmalash choki</b></i>	3	1,5-	0029	Xlb № 40, 50, 60,	Maxsus kiyim uchun moʻljallangan mato
		-65	0029	80 (GOST 6309-79)	
		-70	0029	Ipak (GOST 22665 -	
		-90	0029	74)	
		-100	0029	Lavsan 84/2 (GOST 17-257-	
		-110	0029	73)	
		-110	0029	73)	

Eng koʻp tarqalgan (47 %) – toʻgʻri konturli mokili baxyaqatorli, zanjirsimon ikki ipli va yoʻrmalash choklari hisoblanadi (I - turdagi operatsiyalar).

Toʻgʻri chiziqdan sal ogʻuvchi operatsiyalar 15 % ni tashkil etadi va ular mokili yoki zanjirsimon baxyaqator bilan ishlov beriladi. Operatsiyaning boshidan oxirigacha ishchi asbob bilan chala maxsulot oʻzaro taʼsirda boʻluvchi operatsiyalar ham mavjud (masalan maxsus kiyim shimining yon choklarini va kurtkaning eng oʻmizi choklarini tikib birdaniga yoʻrmalash operatsiyalari).

Agar tikuv mashinasida ortiqcha chok haqlarini kesib tashlash uchun pichoq mavjud boʻlsa, bunday operatsiyalar (tikib-yoʻrmalash va ortiqcha chok haqlarini kesib tashlash) ham I - turdagi operatsiyalarga kiradi.

II-turdagi operatsiyalar: CHok konturida keskin uzilishlar mavjud operatsiyalar 12 % ni tashkil etadi, masalan maxsus kiyimda choklarni puxtalash, tugma qadash, izma yoʻrmalash, emblemalar va boshqa kichik detallarni tikish shular jumlasidandir.

III-turdagi operatsiyalar murakkab konfiguratsiyali operatsiyalar- klapanlar, yoqalar, manjetlar, bortlarga ishlov berish. Ish jarayonida iplarni oʻzaro oʻrilishi va qoldiqini kesib tashlash uchun ishchi organlarga nisbatan doimiy ravishda bir meʼyorda mato va ipni taʼminlab berish talab etiladi. Bu spetsifik talab iplarni oʻzaro oʻrilishi va qoldiqini kesib tashlash texnologik xususiyatlari bilan bogʻliq.

Yuqorida koʻrib chiqilgan barcha baxyaqatorlar turli materiallarda bajarilish mumkin: juda yupqa matolardan boshlab to qalin va qattiq materiallarga. Barcha materiallarni tikishda baxya tashlab ketmaydigan, stabil uzunlikdagi, tortishmaydigan va choʻzilmaydigan sifatli choklar bilan berish talab etiladi.

#### **ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Исаев В.В. Оборудование швейных предприятий. – М.: Легпромиздат, 1989.
2. Вальщиков Н.М. Расчет и проектирование машин швейного производства. – Л.: Машиностроение, 1973. – 344с.
3. Анастасиев А.А. и др. Машины, машины-автоматы и автоматические линии легкой промышленности. – М.: Легкая индустрия, 1983.

4. Уринова А. З. и др. Виды сварных соединений и их применение в швейном производстве //Молодой ученый. – 2016. – №. 7. – С. 201-204.
5. Уринова А. З. Усовершенствование технологии разработки и применение жирующих композиций кожи //Вестник науки. – 2022. – Т. 3. – №. 3 (48). – С. 131-136.
6. Уринова, А. З. "Усовершенствование технологии разработки и применение жирующих композиций кожи." *Вестник науки* 3.3 (48) (2022): 131-136.
7. Уринова А. З., Мустакимова Х. М. РАЗРАБОТКА ЖИРУЮЩИХ КОМПОЗИЦИЙ, ПРИМЕНЯЕМЫХ В КОЖЕВЕННО-МЕХОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ //Вестник науки. – 2022. – Т. 3. – №. 3 (48). – С. 137-144.
8. Уринова, А. З., and Х. М. Мустакимова. "РАЗРАБОТКА ЖИРУЮЩИХ КОМПОЗИЦИЙ, ПРИМЕНЯЕМЫХ В КОЖЕВЕННО-МЕХОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ." *Вестник науки* 3.3 (48) (2022): 137-144.
9. Уринова А. З. и др. Виды сварных соединений и их применение в швейном производстве //Молодой ученый. – 2016. – №. 7. – С. 201-204.